YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH

Jumayev Olimjon Sadulloyevich

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi
huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori. DSc.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot orqali parranda go'shti mahsuloti narxlarini ekonometrik yondashuvlar asosida prognozlash modeli ishlab chiqildi hamda ichki bozordagi raqobat muhiti kompleks tahlil qilindi. Parranda go'shtining kelgusi 3 oyda kutilayotgan narxlarini prognozlash Milliy statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan 5 yillik narxlardan foydalanilib, ARIMA (Autoregressive Integrated Moving Average) modellaridan foydalanildi. Ishning dolzarbligi parranda go'shti narxining yuqori o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'lib, bu aholining turmush darajasi, inflyatsiya darajasi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqilgan model davlat organlarining narxlar dinamikasini prognoz qilish, bozorni o'z vaqtida tartibga solish va inqiroz ssenariylarini oldini olishda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot doirasida parranda go'shti narxlariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Jumladan, ichki bozorda ishlab chiqarish hajmi va taklif dinamikasi, parrandachilikda ozuqa (omuxta yem, soya shroti, yog'lar va vitamin qo'shimchalari) narxlarining o'zgarishi, nasldor ona jo'jalar importiga bog'liqlik, import bozori tuzilmasi va konsentratsiya darajasi, shuningdek chakana savdo tarmoqlarida narx shakllanish mexanizmlari baholandi. Shuningdek, tashqi omillar sifatida jahon bozorida go'sht mahsulotlari narxlarini dinamikasi, xalqaro logistika xarajatlari, valyuta kurslari o'zgarishi hamda global oziq-ovqat bozorida shoklar ta'siri o'rganildi. Ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi va ularning parranda go'shti narxlarini barqarorligiga ta'siri ekonometrik usullar orqali asoslab berildi.

Tadqiqot oziq-ovqat xavfsizligi muammolari uchun ARIMA modelining ustunligini namoyish etadi, shuningdek, kelgusi ishlarda ekzogen omillarni birlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Parranda go'shti, talab va taklif, import, bozor konsentratsiyasi, HHI indeksi, ARIMA modeli, oziq-ovqat xavfsizligi.

Abstract. In this study, an econometric-based model for forecasting poultry meat prices was developed, and a comprehensive analysis of the competitive environment in the domestic market was conducted. The forecast of expected poultry meat prices for the next three months was carried out using five-year price data provided by the National Statistics Committee, applying ARIMA (Autoregressive Integrated Moving Average) models. The relevance of the study is driven by the high volatility of poultry meat prices, which directly affects living standards, inflation dynamics, economic stability, and social development. The developed model can be used by public authorities to forecast price dynamics, ensure timely market regulation, and prevent potential crisis scenarios.

The study provides a comprehensive analysis of internal and external factors affecting poultry meat prices. In particular, it examines domestic production volumes and supply dynamics, changes in feed prices in poultry farming (compound feed, soybean meal, oils, and vitamin supplements), dependence on imports of parent stock chicks, the structure and concentration level of the import market, as well as price formation mechanisms in retail trade networks. In addition, external factors such as global meat price dynamics, international logistics costs, exchange rate fluctuations, and the impact of global shocks in the global food market were analyzed. The interrelationships among these factors and their impact on poultry meat price stability were substantiated using econometric methods.

The findings demonstrate the advantages of applying the ARIMA model to food security-related issues and emphasize the necessity of incorporating exogenous factors in future research.

Key words: Poultry meat, supply and demand, import, market concentration, Herfindahl–Hirschman Index (HHI), ARIMA model, food security.



Аннотация. В рамках данного исследования была разработана модель прогнозирования цен на продукцию из мяса птицы на основе эконометрических подходов, а также проведён комплексный анализ конкурентной среды внутреннего рынка. Прогнозирование ожидаемых цен на мясо птицы на ближайшие 3 месяца осуществлялось с использованием пятилетних ценовых данных, предоставленных Национальным комитетом по статистике, на основе моделей ARIMA (Autoregressive Integrated Moving Average). Актуальность исследования обусловлена высокой волатильностью цен на мясо птицы, которая напрямую влияет на уровень жизни населения, инфляционные процессы, экономическую стабильность и социальное развитие. Разработанная модель может быть использована государственными органами для прогнозирования ценовой динамики, своевременного регулирования рынка и предотвращения кризисных сценариев.

В рамках исследования был проведён комплексный анализ внутренних и внешних факторов, влияющих на цены на мясо птицы. В частности, были изучены динамика объёмов производства и предложения на внутреннем рынке, изменения цен на корма в птицеводстве (комбикорма, соевый шрот, масла и витаминные добавки), зависимость от импорта племенных маточных цыплят, структура и уровень концентрации импортного рынка, а также механизмы формирования цен в розничных торговых сетях. Кроме того, в качестве внешних факторов были проанализированы динамика мировых цен на мясную продукцию, международные логистические издержки, колебания валютных курсов и влияние глобальных шоков на мировом продовольственном рынке. Взаимосвязь указанных факторов и их влияние на ценовую стабильность на рынке мяса птицы были обоснованы с использованием эконометрических методов.

Результаты исследования демонстрируют преимущества применения модели ARIMA при анализе проблем продовольственной безопасности, а также подчёркивают необходимость интеграции экзогенных факторов в дальнейших исследованиях.

Ключевые слова: Мясо птицы, спрос и предложение, импорт, концентрация рынка, индекс Херфиндаля–Хиршмана (HHI), модель ARIMA, продовольственная безопасность.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi global miqyosda ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Global savdodagi noaniqliklar, logistika xarajatlarining oshishi hamda geosiyosiy va iqlim omillarining kuchayishi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining keskin tebranishiga olib kelmoqda (FAO, 2025; World Bank, 2024). Ayniqsa, qisqa ishlab chiqarish sikliga ega va aholi iste'molida muhim ulushni egallovchi parranda go'shti bozori ushbu tashqi shoklarga nisbatan sezgir hisoblanadi.

Parranda go'shti oziq-ovqat mahsulotlari orasida nisbatan arzonligi, yuqori oqsil qiymatiga egaligi va keng iste'mol qilinishi bilan ajralib turadi. Shu sababli uning narxlaridagi o'zgarishlar bevosita aholining turmush darajasi, inflyatsiya jarayonlari va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi (OECD, 2023). Jahon amaliyotida parranda go'shti bozorini tahlil qilishda ishlab chiqarish hajmlari, import va eksport oqimlari, yem-xashak narxlar hamda bozor konsentratsiyasi kabi omillar asosiy determinantlar sifatida e'tirof etiladi (Smith and Brown, 2022).

O'zbekiston sharoitida parranda go'shti bozori milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024–2025-yillarda parranda go'shti ishlab chiqarish hajmlarida barqaror o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, import hajmlarining ham mutanosib ravishda oshib borishi ichki bozor narxlariga tashqi omillarning ta'siri saqlanib qolayotganini ko'rsatadi (Milliy statistika qo'mitasi, 2019–2025). Xususan, global narxlar dinamikasi, logistika xarajatlari va valyuta kurslaridagi o'zgarishlar ichki bozor narxlarining shakllanishida muhim rol o'ynamoqda (FAO, 2025).

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston ichki parranda go'shti bozorida narx shakllanishi, talab va taklif muvozanati hamda raqobat muhitini kompleks tahlil qilish va qisqa muddatli narx prognozlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida ARIMA ekonometrik modeli yordamida narxlarning kelgusi dinamikasi prognoz qilinadi hamda import bozori konsentratsiyasi HHI indeksi asosida baholanadi. Ushbu yondashuv ichki bozor barqarorligini ilmiy asosda baholash va narx tebranishlarini oldindan aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'zbekiston parranda go'shti bozorida narx prognozlari va raqobat muhiti bir vaqtning o'zida ekonometrik prognozlash modeli va bozor konsentratsiyasi ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinadi. Olingan natijalar narx barqarorligini ta'minlash, importga bog'liqlikni kamaytirish va raqobat siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Parranda go'shti bozorini tahlil qilish bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarda asosan global oziq-ovqat xavfsizligi, talab va taklif, shuningdek narx dinamikasi kontekstida o'rganiladi. Jahon oziq-ovqat tashkiloti (FAO, 2025) ma'lumotlariga ko'ra, parranda go'shti ishlab chiqarish va iste'mol hajmi iqtisodiy sharoit, global savdo oqimlari va sog'liqni saqlash siyosatiga sezgir bo'lib, narxlarning o'zgarishi tezkor indikatorlar orqali kuzatilishi mumkin. Shuningdek, OECD va World Bank tadqiqotlarida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda narxlar va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlik, importga bog'liqlik va talab-samaradorlik modellari keng tahlil qilingan (OECD, 2023; World Bank, 2024).

Parranda go'shti narxlari shakllanishida talab va taklif qonunlari, ishlab chiqarish xarajatlari, import va eksport bog'liqligi muhim rol o'ynaydi. Xorijiy tadqiqotlar narxlar dinamikasini tushuntirish uchun ARIMA, VAR va boshqa statistik modellardan foydalangan (FAO, 2025; OECD, 2023). Shuningdek, narxlarni prognozlashda real vaqtli indikatorlar va yuqori chastotali ma'lumotlarning ahamiyati ta'kidlanadi, chunki ular rasmiy statistik ko'rsatkichlarga nisbatan tezkor tahlil imkonini beradi (IMF, 2021).

Global tadqiqotlarda shuningdek, parranda go'shti ishlab chiqarish hajmlarining mavsumiy va hududiy o'zgarishlari, ishlab chiqaruvchilar segmenti (yirik sanoat korxonalari, kichik fermer xo'jaliklari) va ularning bozor tarkibidagi ulushi keng tahlil qilingan (Smith & Brown, 2022). Ushbu tadqiqotlar hududiy farqlar va ishlab chiqarish xarajatlarning narxlar dinamikasiga ta'sirini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Oziq-ovqat narxlarining barqarorligi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi uchun ham muhimdir. O'suvchan oziq-ovqat narxlar yuqori inflyatsiyaga olib kelishi, ta'minot zanjirlarini buzishi va iste'molchilarning xarid qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Prognozlash modellari potensial narx o'zgarishlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa hukumatga bozorni barqarorlashtirish uchun narxlarni nazorat qilish yoki subsidiyalar ajratish kabi tezkor choralarni amalga oshirishga imkon beradi. Masalan, Indoneziyada oziq-ovqat tovarlari narxlarini prognoz qilish, yuqori aniqlikka erishish va yaxshiroq boshqaruv va iqtisodiy rejalashtirishga imkon berish uchun ko'p o'zgaruvchan vaqt seriyasini klasterlash yondashuvidan foydalanilgan (Sumertajaya va boshqalar, 2024).

Oziq-ovqat xavfsizligi global tashvish hisoblanadi, ayniqsa narxlarning o'zgarishi oziq-ovqat tanqisligiga olib kelishi mumkin bo'lgan kam ta'minlangan mamlakatlarda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan ishlab chiqilgan prognozlash modellari narx o'zgarishini bashorat qilish uchun chuqur o'rganish va statistik ramkalarni birlashtiradi, bu esa potensial uzilishlar uchun erta ogohlantirish tizimlarini osonlashtiradi (Balboni va boshqalar, 2024). Ushbu tizimlar mavjudligi hukumatlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiralash yoki import qilish kabi profilaktik harakatlarga imkon beradi.

Murakkab prognozlash modellarini ishlab chiqish oziq-ovqat narxlari prognozlarining aniqligi va ishonchlilikini oshirdi. LSTM (Long Short-Term Memory), ARIMA (Autoregressive Integrated Moving Average) hamda SARIMA-DWT-GANN kabi gibrid modellar narx dinamikasini aniqlash uchun keng qo'llaniladi (Jayadianti va boshq., 2023, S.Balboni va boshq., 2024).

Parranda go'shti narxlarini prognoz qilishning ekonometrik modellari oziq-ovqat bozorlaridagi tebranishlarni tushunish va bashorat qilish uchun muhim vosita bo'lib, ular iqtisodiy barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim ta'sir ko'rsatadi. Ushbu narx dinamikasini modellashtirish uchun turli yondashuvlar ishlab chiqilgan, ularning har biri o'zining kuchli cheklovlariga ega. Bu javob parranda go'shti narxlarini prognoz qilish, ularning metodologiyasi va samaradorligini ta'kidlash uchun so'nggi tadqiqotlarda foydalanilgan bir nechta ekonometrik va mashinani o'rganish modellarini o'rganadi.

Ekonometrik modellar orqali narxlarni prognozlashtirish O'zbekistonda ham qator olimlar tomonidan amalga oshirilgan. F.Muslimova (2024) o'z tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash uchun ARIMA modelidan foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar bazasi bir nechta ishonchli va rasmiy manbalardan tashkil topgan. Asosiy ma'lumotlar Milliy statistika qo'mitasidan olingan bo'lib, ular parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, parrandalar soni, ichki talab va narxlar bo'yicha dolzarb va rasmiy statistik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar ichki bozorning joriy holatini baholash, ishlab chiqarish tendensiyalarini kuzatish va tahlil qilishda asosiy bazani tashkil qiladi.

Ichki bozor va raqobat muhiti bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar rasmiy manbalar tomonidan taqdim etilgan tahliliy hisobotlar asosida olinadi. Ushbu ma'lumotlar ichki talab va taklifning dinamikasi, bozor segmentlari, korxonalar faoliyati va import hajmlari bo'yicha chuqur tahlil imkonini beradi hamda bozorning strukturaviy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Global narxlar va import holatini tahlil qilishda FAO (BMT Oziq-ovqat va Qishloq xo'jaligi tashkiloti) ma'lumotlari hamda bojxona statistikasi manba sifatida ishlatiladi. Bu ma'lumotlar parrandachilik mahsulotlarining



xalqaro narxlar, import hajmlari va eksport ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi, shuningdek ichki va tashqi bozor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqot davri 2019–2025-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu vaqt oralig'i ichki va tashqi bozor tendensiyalarini, ishlab chiqarish hajmi va narx dinamikasini kompleks tarzda o'rganish uchun yetarli statistik ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tahlil jarayonida bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Birinchidan, deskriptiv statistik tahlil yordamida ishlab chiqarish hajmi, narxlar va talab ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi, tendensiyalari va farqlari aniqlandi. Ikkinchidan, talab va taklif balans tahlili ichki bozorning yetarli ta'minlanganlik darajasi yoki ortiqcha ta'minlanish holatini baholashga xizmat qildi.

Shuningdek, narxlar shakllanishi va bozor konsentratsiyasi tahlili ham amalga oshirildi. Narxlar dinamikasi tahlili ichki va global bozordagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini berdi, bozor konsentratsiyasi esa HHI indeksi yordamida import bozoridagi raqobat darajasini baholashga xizmat qildi.

Kelajakdagi narxlarni prognozlashda ekonometrik yondashuvlar, xususan ARIMA modeli qo'llanildi. Ushbu model vaqt qatorlaridagi davriylik va o'tgan davr tendensiyalarini hisobga olib, parrandachilik mahsulotlari narxlarining qisqa muddatli o'zgarishlarini ishonchli tarzda bashorat qilish imkonini beradi.

Tadqiqot cheklovlari sifatida bir nechta omillar mavjud. ARIMA modeli faqat mavjud va tarixiy ma'lumotlar asosida narxlarni prognozlaydi, shuning uchun kutilmagan ichki yoki tashqi shoklar model natijalariga kiritilmaydi. Shuningdek, ayrim statistik ma'lumotlar to'liq yoki yangilangan bo'lmasligi mumkin, bu esa tahlil natijalariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, statistik kechikishlar va yuqori chastotali ma'lumotlarning yetarli darajada mavjud emasligi indeks va prognozlarni faqat tezkor monitoring va tahlil uchun ishlatishga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki bozordagi talab va realizatsiya holati

Bugungi kunda 1 kg tovuq go'shti yil boshiga nisbatan o'zgarishsiz saqlanib, dehqon bozorlarida 28-35 ming so'mni, savdo tarmoqlarida (Korzinka, Makro, B1, Havas va Baraka) 34-40 ming so'mni tashkil etmoqda. Bo'laklarga bo'lingan tovuq go'sht narxi nisbatan qimmatroq bo'lib, file 45 ming so'm, boldir va son 40 ming so'm, qanot 38 ming so'mni tashkil etmoqda.

2025-yilning 1-oktyabr holatiga respublikadagi parrandalar bosh soni 110,8 mln boshni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 foizga oshgan. Bunda, parrandalarning 16,8 foizi fermer xo'jaliklari, 46,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 36,7 foizi esa qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida parrandalar bosh sonining eng yuqori hajmi Toshkent (18 foiz), Samarqand (14 foiz) va Andijon (9 foiz) viloyatlariga to'g'ri kelsa, eng kam hajmlar Navoiy (3,7 foiz) va Jizzax (3,6 foiz) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida, Ryepublikada parranda go'shti va tuxum mahsulotlari yetishtirilishi va ishlab chiqarilishi mavjud talabga mutanosib ekanligini va talabni qondirayotganligini ko'rsatmoqda.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida 19 ta davlatdan qiymati 85,5 mln AQSH dollariga teng bo'lgan 80,3 ming tn (o'rtacha 1 065 doll/tn) parranda go'shti import qilingan. Import hajmi o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda qariyb 7,3 ming tonnaga yoki 10 foizga oshganligi kuzatildi. Import bozorining konsentratsiya darajasi o'rganilganda eng yirik 5 ta import qiluvchi korxonalar xissasiga jami importning 38 foizi to'g'ri kelmoqda, jami import qiluvchi korxonalar soni 78 tani tashkil etgan.


Shuningdek, tahlillar doirasida parranda go'shti importi bozoridagi raqobat holati xalqaro tan olingan HHI (Herfindal-Hirshman indeksi) orqali baholandi. 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida indeks natijasi 434 punktga teng bo'lganligi, bu esa parranda go'shti importi bozorida raqobat muhiti rivojlanganligini ko'rsatmoqda.

Import qilingan parranda go'shtining 25 foizi – Rossiya, 24 foizi – Turkiya,

12 foizi – Belarus, 39 foizi esa boshqa 16 ta davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Numbeo xalqaro servisi ma'lumotlari asosida jahon bozorida parranda go'shtining o'rtacha chakana narxlar o'rganilganda, bugungi kunda eng arzon narxlar Bangladesh – 2,6 doll, Eron – 2,9 doll va Pokiston – 3 doll kabi davlatlarda kuzatildi. Parranda go'shti eng qimmat bo'lgan davlatlar Shvetsariya (29,5 doll), Lyuksemburg (15,7 doll), Niderlandiya (15,2 doll), Norvegiya (2,7) va Fransiya (14,2 doll) hisoblanadi.

Ichki bozorda parranda go'shti narxlarining qisqa muddatli prognozi

Parranda go'shti narxlar uchun ARIMA (1,1,1) modeli bo'yicha olingan natijalarni olish uchun 1-rasmda narxning vaqt qatorlari grafigi keltirilgan. Model AIC (Akaike Information Criterion) va SIC (Schwarz Information Criterion) mezonlari bo'yicha eng maqbul model sifatida tanlangan. Go'sht narxi vaqt qatorlarining statsionarliligi Kengaytirilgan Dikey-Fuller test natijalari 1-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Parranda go'shti narxining vaqt qatorlari.

1-Jadval. Parranda go'shti narxi vaqt qatorlarining statsionarligi kengaytirilgan Dikey-Fuller (Augmented Dickey-Fuller /ADF)

```
. dfuller d.Tovuqgoshti, regress
```


Dickey-Fuller test for unit root Number of obs = 53

Test Statistic	Interpolated Dickey-Fuller		
	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value
Z(t)	-6.150	-3.576	-2.928


MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.0000

D2.	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
Tovuqgoshti						
Tovuqgoshti LD.	-.6727434	.1093814	-6.15	0.000	-.8923356	-.4531511
_cons	54.45326	42.76216	1.27	0.209	-31.39537	140.3019

Parranda go'shti narxining PAC (qisman avtokorrelyatsiya) va AC (avtokorrelyatsiya) grafigi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Parranda go'shti narxining PAC (qisman avtokorrelyatsiya) va AC (avtokorrelyatsiya) grafigi



3-rasm. ARIMA (1;1;1) uchun qoldiqlarning vaqt ketma-ketligi chizig'i

```
. arimasel d.Tovuqqoshti, ar(1) ma(1)
```

```
Model1: AR(0) MA(1)
```

```
Model2: AR(1) MA(0)
```

```
Model3: AR(1) MA(1)
```

	AR	MA	Nparm	LLF	AIC	SIC
Model1	0	1	2	-391.3887	786.7774	790.7554
Model2	1	0	2	-391.5184	787.0368	791.0148
Model3	1	1	3	-391.1163	788.2326	794.1996

Max LLF: Model 3

Min AIC: Model 1

Min SIC: Model 1

4-rasm. Parranda go'shti narxi bo'yicha ARIMASEL natijalari



Ekonometrik tahlillarga ko'ra, ichki va tashqi shoklar bo'lmagan holda tovuq go'shti narxlarida kichik o'sish tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Xususan, joriy yilning dekabr hamda 2026-yilning fevral oylarida 1 kg tovuq go'shti narxi 34-36 ming so'm atrofida shakllanishi kutilmoqda.

Shuningdek, ARIMA modeli prognozlari tashqi va ichki shoklar mavjud emasligi sharti asosida shakllantirilgan. Agar prognoz davri davomida ichki va tashqi shoklar yuz bersa, bozordagi talab va taklif muvozanati o'zgarishi mumkin, bu esa model natijalarining amaldagi dinamikadan farq qilish ehtimolini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan kompleks tadqiqot natijalari O'zbekiston ichki bozorida parranda go'shti ishlab chiqarish hajmlari so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmlarining nisbatan muvozanatli taqsimlanganligi yirik sanoat korxonalari bilan bir qatorda kichik va o'rta xo'jaliklarning ham bozor ta'minotidagi muhim rolini tasdiqlaydi. Talab va taklif balansini tahlili ichki ishlab chiqarish hajmlari mavjud ehtiyojni to'liq qoplash bilan birga, ortiqcha hajmlarni qayta ishlash va eksport qilish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, parranda go'shti narxlarining qisqa muddatli dinamikasini prognozlashda ARIMA (1,1,1) modeli eng maqbul model sifatida tanlandi. Model diagnostika testlari (ADF testi, AIC va SIC mezonlari, qoldiqlar tahlili) natijalari uning statistik jihatdan barqaror va ishonchli ekanligini tasdiqladi. Prognoz natijalariga muvofiq, ichki va tashqi shoklar mavjud bo'lmagan sharoitda 2025-yil dekabr – 2026-yil fevral oylarida 1 kg tovuq go'shti narxi 34–36 ming so'm oralig'ida shakllanishi kutilmoqda. Mazkur natijalar ichki bozorda narxlar nisbatan barqaror ekanligini va keskin tebranishlar ehtimoli pastligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tahlillar parranda go'shti tannarxining sezilarli qismi import qilinadigan resurslar, xususan nasldor ona jo'jalar va ozuqa komponentlari narxlariga bog'liqligini aniqladi. Ushbu holat global narx kon'yunkturasi va logistika xarajatlaridagi o'zgarishlar ichki bozor narxlariga bilvosita bosim o'tkazishi mumkinligini anglatadi. Shu sababli, tannarxni pasaytirish va raqobat muhitini yanada mustahkamlash maqsadida, nasldor ona jo'jalar masofasi nisbatan yaqin bo'lgan Rossiya va Pokiston kabi davlatlarda ham yetishtirilishini inobatga olgan holda, ushbu mamlakatlardan nisbatan arzon narxlarda import qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv logistika xarajatlari kamaytirish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va bozor ishtirokchilari uchun teng raqobat sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, parranda go'shti yetishtiruvchi yetakchi korxonalarga xalqaro sifat standartlari va sertifikatlarini (ISO 22000, HACCP va boshqalar) joriy etishni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur choralar mahsulot sifatini oshirish, ichki bozorda iste'molchilar ishonchini mustahkamlash va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston parranda mahsulotlarini xorijiy bozorlarda ilgari surish maqsadida kompleks marketing strategiyalarini ishlab chiqish va savdo-logistika zanjirlarini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ARIMA modeli qisqa muddatli prognozlarda uchun munosib vosita bo'lib, davlat organlariga narxlarning o'zgaruvchanligini monitoring qilish, bozorni o'z vaqtida tartibga solish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yordam berish imkonini beradi. Biroq, model tashqi va ichki shoklar (valyuta kursi o'zgarishlari, import hajmi, ob-havo sharoitlari)ni hisobga olmaganligi sababli uning imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan. Shu munosabat bilan, kelajakda prognozlarning aniqligini oshirish maqsadida ekzogen omillarni integratsiya qilish va boshqa ekonometrik modellar (masalan, VAR, VECM yoki SARIMA) bilan birga qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. FAO. (2025). FAO Food Price Index. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. World Bank. (2024). World Development Indicators. Washington, D.C.: World Bank.
3. OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). Agricultural Outlook 2023–2032. Paris: OECD Publishing.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2018). G'osht va g'osht mahsulotlari xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament.
5. Milliy statistika qo'mitasi. (2019–2025). Parranda go'shti ishlab chiqarish va iste'mol statistikasi.
6. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. (2025). Ichki bozor va import tahlillari bo'yicha hisobot.
7. Numbeo. (2025). Global Poultry Prices Database.
8. ISO – International Organization for Standardization. (2021). ISO 22000:2018 Food Safety Management Systems.
9. Karimov, A., & Tursunov, S. (2023). "O'zbekiston parranda go'shti bozorining iqtisodiy tahlili." O'zbekiston Agrar Ilmiy Jurnal, 15(2), 45–58.
10. Smith, J., & Brown, L. (2022). "Global poultry production and price dynamics." Journal of Agricultural Economics, 73(4), 1123–1140.
11. Rotem Zelingher, Democratising Agricultural Commodity Price Forecasting: The AGRICAF Approach, 2024.



12. Manik Arora, Gurinder Singh, Danish Ather, Naina Chaudhary, Rajneesh Kler, Forecasting Inbound Tourism in Uzbekistan: Leveraging AI and ARIMA Models for Economic Growth Insights, 2023.
13. Herlina Jayadianti, Vynska Amalia Permadi, Partoyo Partoyo, LSTM forecast of volatile national strategic food commodities, Jurnal Infotel, pp 345-351.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
